

“O'zkimyosanoat” AJ Ijro apparati va tizim korxonalari xodimlari o'rtasida odob-axloq qoidalariga rioya etishni qat'iy yo'lga qo'yish bo'yicha kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi

// 08 June 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/odob-axloq-qoidalariga-rioya-etish>

Yurtimizda ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish, har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish yuzasidan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat organlarida faoliyat yurituvchi har bir xodim, avvalambor, tashqi ko'rinishi, kiyinishi, yurish-turishi bilan boshqalarga namuna bo'lishi, odob-axloq qonun-qoidalariga mos xatti-harakatlari bilan fuqarolarning davlat idoralariga bo'lgan hurmat va ishonchini oshirishga xizmat qilishi zarurligi barchamizga ma'lum.



Joriy yilning 7-iyun sanasida “O'zkimyosanoat” AJda kengaytirilgan tartıbda yig'ilish o'tkazildi. Ijro apparati va tizim korxonalari xodimlari o'rtasida Odob-axloq qoidalariga rioya etishni qat'iy yo'lga qo'yish kun tartıbıdan o'rin oldi.

Mazkur yig'ilish bayonidan kelib chiqib, jamiyatning 2022-yil 23-maydagi “O'zkimyosanoat” aksiyadorlik

jamiyatida Odob-axloq masalalari bo'yicha tartib-qoidalariga qat'iy rioya etishni yanada kuchaytirish to'g'risida" 65-son buyrug'i qabul qilindi. Bunga ko'ra, Odob-axloq masalalari bo'yicha maxsus ishchi komissiya tarkibi yangilandi. Odob-axloq qoidalari me'yorlarining buzilishi qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qabul qilgan buyruq "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining muhim hujjatlaridan biri hisoblanadi. Unda jamiyatda ishlovchi va hamkorlikda ishlayotgan har bir xodimdan kutilayotgan - xizmat va odob-axloq qoidalari qat'iy belgilab berilgan.



Jamiyatning "Xizmat odobi kodeksi" huquqbuzarliklarning oldini olishga, sodir etilish sabab va sharoitlarini bartaraf etishga, xodimlarda yuksak huquqiy ongni tarbiyalashga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga og'ishmay rioya qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga hamda jahon amaliyotidagi xizmat odobining yuqori kasbiy va axloqiy talablariga yo'naltirilgan.

2020-yil 9-oktabrda "O'zkimyosanoat" AJning 87-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Xizmat odobi kodeksi"ga 2022-yil 23-maydagi "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida Odob-ahloq masalalari bo'yicha tartib qoidalariga qat'iy rioya etishni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi 65-son buyrug'i bilan bir qator o'zgartishlar kiritildi.

Jamiyatda kiyinish tartiblari xodimlar o'rtasida o'zaro ijtimoiy tenglik tamoyillarini qaror toptirish, xodimlarning ichki tartib va odob-axloq qoidalariga to'liq rioya etishlarini tartibga solish, xodimlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yot bo'lgan "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqildi.



Bundan tashqari, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida odob-axloq masalalari bo'yicha tartib-qoidalar xodimlarga batafsil tushuntirib berildi. Ushbu talablar buzilgan taqdirda, zaruriy intizomiy choralar ko'rilishi to'g'risida barcha xodimlar va mas'ullar ogohlantirildi.